



JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

*2020- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investirlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar-oktabr oylarida, birlikda)





Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **35,2** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
 ■ O'rmon xo'jaligi
 ■ Baliq xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 395 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,0 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 124,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,4 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 108,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 175,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 7,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) kamayishi kuzatildi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




12,5 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




17,0 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




75,0 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **88,9** foizni tashkil etdi




Xususiy korxonalar




1,1 foizga oshdi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 1 356 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 594 taga yoki 178,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 284 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 564 taga yoki 178,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar- oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 583 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 350 taga yoki 2,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 11 423 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 499 taga yoki 128,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 018 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 411 taga yoki 128,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 389 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 145 taga yoki 106,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 200 tani tashkil etib, ulardan 192 tasi yoki 96,0 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 16 taga yoki 108,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar- oktabr oylarida Jizzax viloyatida 18 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	71	76	115	181	192
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3	5	18	28	27
Sanoat	55	59	66	104	109
Qurilish	2	2	3	9	8
Savdo	6	4	18	21	29
Tashish va saqlash	2	3	3	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	5	4
Axborot va aloqa	1	1	1	3	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	1
Boshqa turlar	2	2	5	6	7

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Jizzax viloyati	192	122	70
Jizzax shahri	66	46	20
tumanlar:			
Arnasoy	6	4	2
Baxmal	8	5	3
G'allaorol	18	12	6
Sharof Rashidov	18	9	9
Do'stlik	3	2	1
Zomin	15	8	7
Zarbdor	3	2	1
Zafarobod	8	2	6
Mirzacho'l	3	1	2
Paxtakor	9	8	1
Forish	24	18	6
Yangiobod	11	5	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 66 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 34,4 %), Forish tumanida 24 ta (12,5 %), G'allaorol tumanida 18 ta (9,4 %), Sharof Rashidov tumanida 18 ta (9,4 %), Zomin tumanida 15 ta (7,8 %), Yangiobod tumanida 11 ta (5,5 %) hamda Paxtakor tumanlarida 9 ta (4,7 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (29,2 %), Sharof Rashidov (15,6 %), G'allaorol (8,2 %), Zomin (8,0 %), Forish (6,9 %), Baxmal (6,1 %), Zarbdor (4,8 %), Paxtakor (4,4 %), Do'stlik (4,3 %), Mirzacho'l (3,6 %), Arnasoy (3,3 %), Zafarobod (3,2 %) va Yangiobod (2,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (22,0 %), Sharof Rashidov (11,3 %), G'allaorol (10,1 %), Baxmal (7,8 %), Forish (7,3 %), Zomin (6,9 %), Zarbdor (6,5 %), Do'stlik (6,2 %), Paxtakor (5,7 %), Arnasoy (4,9 %), Zafarobod (4,5 %), Mirzacho'l (3,9 %) va Yangiobod (2,9 %) tumanlari ulushiga ega.



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)




2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Jizzax shahrida (31,6 %), Paxtakor (16,0 %), G'allaorol (9,1 %), Zarbdor (8,2 %), Sharof Rashidov (6,9 %), Mirzacho'l (6,0 %), Zafarobod (5,7 %), Zomin (5,3 %), Do'stlik (4,8 %), Baxmal (2,2 %), Yangiobod (2,0 %), Arnasoy (1,7 %), va Forish (0,5 %) tumanlari ulushni qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining www.jizzaxstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 72 221-51-24